Website:https://www.bgpulseusa.com/index.php/ICAIA Volume:6,Issue 02,October-2026

TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK MASHG'ULOTLARIDA GRAFIK DASTURLARDAN BIRI POWER POINTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sayitova Manzura Anvarovna
O'zbekiston Finlandiya pedagogika
instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi
manzurasayiyova26@gmail.com

Annotatsiya: maqolada Power point dasturi asosida yaratilgan yangi taviriy san'at darsliklarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, zamoaviy san'at turlari va grafik dasturlaridan foydalanib ijodkorlikni oshirish hamda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishini, ta'limning dunyo ta'limi tizimiga integratsiyalashuvini, taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishini ta'lim jarayonida zamonaviy o'qitish texnologiyalariga yangicha yondashuv zarurligi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Power point, milliy ta'lim resurslari ,ATdan foydalanish animatsiya, elektron darsliklar, demokratsiya, integratsiyalash, tasviriy san'at, elektron plyonka, grafik obyekt,zamonaviy texnologiya, muhandislik fanlari, IT g'oya zamonaviylik, shakl, metod.

Texnologiyaning rivojlanishi odamlar hayotining deyarli barcha sohalariga o'z ta'sirini o 'tkazmoqda. Bu deyarli bir vazifada ishlash uslubini o'zgartirdi. Tasviriy fa'oliyat va u bilan bog'liq fanlar , jumlaan tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda ham kompyuter grafikasidan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Sun'iy intellektning rivojlanishi jismoniy mehnatning kamayib, aqliy mehnatga bo'lgan talabning ortishi hisobiga, kelajakda kutilayotgan ishsizlikni oldini olish, yoshlarni ish bilan ta'minlash, IT sohasiga qiziqtirish va masofaviy xizmat ko'rsatishni oshirish lozimligi bugungi kunning eng dolzarb masalasi bo'ldi.

Kompyuter grafikasi dasturlaridan Power Point dasturini oladigan bo'lsak, har bir soha vakillari bilan uzviy bog'liqligi , jahon bozorida unga bo'lgan talabning ortishi inobatga olib maktab tasviriy san'at va chzimachilik darslarida o'quvchilarni darsga qiziqtirish, ta'lim samaradorligini oshirish, kutilgan natijaga erishish uchun pedagog kadrlardan nafaqat o'z sohasi bo'yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ma'lum bilimlarini chuqur egallashi,zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish, ularni amalda qo'llay olish o'quvchilarga xalaro talablar darajasida yetkazish uchun o'qituvchi fasalitator vazifasini bajarishi, o'quvchini mustaqil fikrlashga , mustaqil izlanishga o'rgata olish lozim.

Milliy O'quv dasturi asosida yaratilgan yangi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, zamonaviy san'at turlari va grafik dasturlardan foydalanib mustaqil ish bajarishlari haqidagi mavzularning kiritilishi, o'quvchilarda bu sohaga qiziqishni oshirish , grafik dasturlardan foydalanib logotip tayyorlash, Dizayn san'ati kabi mavzular orqali talabalarni grafik dizaynerlik haqidagi bilimlarini ortishiga juda yaxshi turtki bo'ldi. Bunda eng asosiy maqsad zamonaviy tasviriy san'at orqali o'quvchi yoshlarimizdagi qobiliyat hamda imkoniyatlarni aniqlab, ularni yuzaga chiqarishdir. O'quv jarayoniga kompyuter grafik dasturlarini joriy etish bo'yicha juda ko'plab pedagog tadqiqotchilar faoliyat olib borgan. Kompyuterni ta'lim jarayoniga qo'llash bo'yicha dastlabki tadqiqotlarni olib borgan xorijiy olimlardan biri E.I.Mashbits hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida "Ta'limni kompyuterlashtirishni to'xtatib bo'lmaydi, ta'limda kompyuterni qo'llash bu orqaga qaytmaydigan jarayondir. Bu o'z-o'zidan amalga oshmaydi, uning faoliyati ta'lim tizimi bilan bog'liq bo'lgan olimlar, o'qituvchilar, zamonaviy hisoblash texnikasi va dasturiy ta'minotni yaratuvchi kishilarga bog'liqdir", – degan fikrlar mavjud. O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, elektron darsliklar, o'quv-metodik majmualarni yaratish bo'yicha respublikamiz olimlari ham juda ko'plab tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, U.Sh.Begimqulov oliy ta'lim tizimi uchun elektron-axborot resurslari yaratish, elektron-ta'lim resurslaridan foydalanib ta'lim jarayonini boshqarish, ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, ta'lim jarayonining yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

O‘quv jarayonida kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanishda ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik kabi axborot resurslaridan foydalanish axborot ta’minotni ko‘paytirishga kata e’tibor qaratilishi demakdir. Yaratilgan zamonaviy axborot ta’minoti ta’lim-tarbiya, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va boshqa jarayonlarda axborot almashish sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish hamda avtomatlashtirish imkoniyatini yaratadi. O‘quv jarayoniga mo‘ljallangan axborot-metodik ta’minoti quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak: axborotni tezkor almashish va masofadan turib foydalanish hujjat almashish va saqlash;

ta’lim muassasasining barcha a’zolari uchun kompyuter grafikasining barcha dasturlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

ixtiyoriy foydalanuvchilar va hamkor tashkilotlar uchun POWER POINT kompyuter grafikasini turli elektron ta’lim resurslari, jumladan, ma’ruza materiallari, taqdimot, audio va videodarslar va boshqalardan masofadan turib foydalanish,

kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanishga asoslangan masofaviy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish;

ta’lim muassasasining turli sohalarda tahsil oluvchi talabalarni tayyorgarlik va o‘zlashtirish darajasini baholash hamda nazorat qilish;

Zamonaviy ta’lim jarayonlarining kompyuter grafik dasturlarining o‘zida o‘quv mashg‘uloti uchun zarur bo‘lgan barcha elementlarni qamrab olish jarayonida biz o‘ylagan natijaga erishamiz.

Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuter grafik dasturlarini o‘rgatishda axborot tizimlariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

ochiqlik, ya’ni barcha zamonaviy standartlarga mosligi, barcha dasturiy ta’minot imkoniyatlarini e’tiborga olish, foydalanuvchilarning dasturiy ta’minoti bilan o‘zaro muvofiqlashtirish orqali funksionallikni oshirish;

integratsiyalashuv, ya’ni oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish vazifalarini yagona axborot muhitiga birlashtirish;

tizimni kengaytirish imkoniyati, ya’ni tizim tomonidan berilayotgan ma’lumotlarning hajmi va tizim foydalanuvchilar sonining o‘sishi bilan tizimning kengayishi;

portativlik, ya’ni turli platformalar, operatsion tizimlar va ma’lumotlar bazasi serverlarida ishlash imkoniyati;

moslashuvchanlik, ya’ni ma’lum bir oliy ta’lim muassasalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tez moslashtirish imkoniyati;

kengayish, tizimdan foydalanuvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga muvofiq tayyorlangan bazadan tashqari tizimning funksional imkoniyatlarini oshirish imkoniyati;

lokalizatsiya, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etishga oid milliy standartlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligi.

Bizning nazarimizda, oliy o‘quv yurtlarining jahon standartlariga javob beradigan yagona axborot makonini shakllantirish va uning mazmunini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: an’anaviy ta’lim vositalari, elektron o‘quv materiallari bilan birgalikda uni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning zamonaviy elektron ta’lim vositalarini yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash va o‘quv jarayonini rivojlantirish vositalarini ishlab chiqish,o‘quv jarayonini standartlashtirish va sertifikatlashtirish asosida elektron qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish vositalarining sifatini ta’minlash, barcha sohalarda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan zamonaviy oliy ta’lim muassasasi jamoasini shakllantirish va boshqalar.

Zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalangan holda bilimni har xil shakllarda taqdim etish imkoniyatini beradi. Shuning bilan birga kompyuter imitatsion modeli asosida mashg‘ulot o‘tkazishda faqat o‘quv materiallarini yaxshi o‘zlashtirishga erishib qolmasdan, balki yaxshi o‘zlashtira olmaydigan talabalarning ham yangi bilim olishga bo‘lgan intilishlari kuchayadi. Kompyuter imitatsion modeli yordamida o‘qitish talabalarning faoliyatini, o‘zlashtirishning sifat ko‘rsatgichini oshirishga asos bo‘ladi. Axborot ta’minotining samaradorligi jamiyat a’zolariga zarur bo‘ladigan axborotlarning to‘la

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

yig‘ilganligiga, ularni qayta ishlash sifati darajasiga, saqlash va qidirishning ishonchligiga, axborotni tanlash va tez etkazib berishga bog‘liq. Aynan shu kabi samaradorlikka erishish uchun ko‘rinib turibdiki, fan-texnika xizmati tarmoqlaridagi xodimlar faoliyatini yangi zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘lash kerak bo‘ladi. Buning uchun axborot xizmati xodimlarigina emas, balki axborot iste’molchisi ham shu zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olishi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik Akademik S.S. G‘ulomovning umumiy tahriri ostida -T.: «Sharq», 2000-yil. 529 b.
2. A.Aripov A Xaydarov “Informatika asoslari”2022-yil
3. Ahrorovna, R. D. Z. (2023). MUAMMOGA ASOSLANGAN TA’LIM (PBL) DOIRASIDA CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 377-379.
4. Drobchenko, N. V., & Fakhriddinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING.
5. Сайитова, М. А. (2023). СИФАТЛИ ТАЪЛИМ ТАРБИЯДАН БОШЛАНАДИ. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 917-922.
6. Faxriddin o’g’li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 196-199.
7. D.E.Omonov International Journal of Innovations in engineering research and technology 2021-yil 199 bet
8. Faxriddin o’g’li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA’LIMDAGI KREATIV O’RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 514-521.
9. Faxriddin o’g’li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 43-46.
10. Faxriddin o’g’li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58.
11. Faxriddin o‘g‘li F.M.(2024).CHIZMACHILIKDA KOMPYUTER LOYIHALASH VA DIZAYN. FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI(INTEGRATION OF SCIENCE AND EDUCATION), 2(2), 147-150.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.